BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

QOSIMOV ZOKIR ZIKIRYOYEVICH

O‘RTA SIRDARYO BOTANIK GEOGRAFIK OKRUGI FLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 581.9(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Qosimov Zokir Zikiryoyevich
O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasi……..... 3

Қосимов Зокир Зикирёевич
Флора Средне-Сырдарьинского ботанико-географического округа..... 21

Qosimov Zokir Zikiryoyevich
Flora of the Middle Syrdarya botanical and geographical district.……..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ……..….. 45

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

QOSIMOV ZOKIR ZIKIRYOYEVICH

O‘RTA SIRDARYO BOTANIK GEOGRAFIK OKRUGI FLORASI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B723 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Beshko Natalya Yurevna** biologiya fanlari nomzodi katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Turginov Orzimat Turdimatovich** biologiya fanlari doktori
	Esanov Husniddin Qurbonovich biologiya fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax Davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “17” fevral kuni soan 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (80-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy,
Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “4” fevral kuni tarqatildi.
(2026-yil “4” fevraldagi 19-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda antropogen omillar ta’siri natijasida tabiiy ekotizimlarning degradatsiyasi va yemirilishi kuchayib bormoqda, sinantrop hududlar kengaymoqda, tabiiy bioxilma-xillikning yo‘qolishi va invaziv turlar tarqalishi global miqyosda ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘dirmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy botanika fanida mintaqaviy floralarning hozirgi holatini baholash, antropogen omillarning o‘simliklar dunyosiga ta’sirini tahlil qilish, floradagi adventivlashuv jarayonlarini o‘rganish hamda endemik va kamyob turlarni saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalar ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi kunda turlar geografik tarqalishining tahlili, aborigen va adventiv fraksiyalarining taksonomik tarkibini aniqlash, floristik ma’lumotlarni raqamlashtirish va global ma’lumotlar bazalarini shakllantirish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘rta Osiyo ekotizimlari, jumladan O‘zbekiston hududlari, cho‘llanish jarayonlari, xo‘jalik faoliyatining kengayishi va antropogen yuklamaning ortishi natijasida sezilarli o‘zgarishlarga uchramoqda. Shu bois mintaqaviy floralarning taksonomik tarkibida yuz berayotgan o‘zgarishlarni monitoring qilish va bioxilma-xillikni saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish botanika fanining eng muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayonlari va tezlashgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O‘zbekistonning cho‘l va yarim cho‘l ekotizimlarida antropogen degradatsiya jarayonlarini kuchaytirmoqda. Natijada endemik va kamyob o‘simliklar populyatsiyalari qisqarib bormoqda, invaziv turlar soni ortib, aborigen flora tarkibida sezilarli transformatsiyalar ro‘y bermoqda. Shu jihatdan, O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasini kompleks o‘rganish va uning adventivlashuv darajasini baholash muhim ilmiy vazifa sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash masalasiga alohida e’tibor qaratilib, bu yo‘nalish “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”ning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum ma’noda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarga xizmat qiladi: O‘zbekiston Respublikasi “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni (№409, 2016-yil 21-sentabr);O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hayvonot va o‘simliklar dunyosi obyektlarini davlat hisobini yuritish, ulardan foydalanish hajmlarini hisobga olish va davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi qarori (№914, 2018-yil 7-noyabr);O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining biologik xilma-xilligini saqlash bo‘yicha Milliy strategiya (2019–2028-yillar)»ni tasdiqlash haqida”gi qarori (№484, 2019-yil 11-iyun), hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V-ustuvor yo‘nalishi “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish” doirasida bajarilgan

bo‘lib, mazkur yo‘nalishning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiiy mintaqalarning taksonomik tarkibini aniqlash, floraga oid konspektlar tuzish, muhofazaga muhtoj turlarni aniqlash, flora tarkibida sodir bo‘layotgan adventivlashuv jarayonlarini tahlil qilish masalalari dunyoning ko‘plab mamlakatlari botanika olimlari tomonidan keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Xususan, F.G. Conti va hammualliflar (2005), J. de L. Peter va boshqalar (2011), K.O. Zvyagintseva (2015), A.P. Seregin va hamkorlari (2015), Sh. Ghazanfar (2016), A.N. Rao va V. Kumar (2018)larning ishlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. O‘rta Osiyoda ham mintaqaviy floralarning tarkibi va muhofazaga muhtoj turlarni aniqlash borasida fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada K.Z. Zakirov (1955, 1961), R.V. Kamelin (1990), G.A. Sadirova (2010), G.A. Laz’kov va B.A. Sultanova (2014), K.Sh. Tojibaev va hammualliflarning (2018, 2020, 2021) ishlari muhim ilmiy natijalar bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishga oid tadqiqotlar K.Sh. Tojibaev (2002, 2010), A.R. Batoshov (2016), F.I. Karimov (2016), O.T. Turginov (2017), H.Q. Esanov (2017, 2023), U.X. Qodirov (2020), X.R. Xoshimov (2023) va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, respublika florasining aborigen va adventiv fraksiyalarining taksonomik tarkibini aniqlash, endemik va kamyob turlar areallarini belgilash hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishda katta hissa qo‘shgan. Mazkur tadqiqotlar O‘zbekistonda floristik xilma-xillikni saqlashning ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasiga oid dastlabki ilmiy ma’lumotlar XIX asr oxiri XX asr boshlariga taalluqli bo‘lib, O.A. Fedchenko (1866-1871), P. Kapyu va G. Bonvalo (1881), A. Regel (1876-1885), V.I. Lipskiy (1887-1903), M.G. Popov (1914), B.A. Fedchenko (1916)larning ekspeditsion tadqiqotlari bilan bog‘liqdir. XX asrda M.G. Popov, A.I. Vvedenskiy, M.M. Sovetkina, I.A. Raykova, A.Ya. Butkov, A.U. Usmonov va boshqa olimlar tomonidan mazkur hududda fundamental floristik tadqiqotlar olib borilgan. So‘nggi o‘n yilliklarda ekotizimlarga antropogen bosimning keskin kuchayishi natijasida florada sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Nazoratsiz chorva boqish, urbanizatsiya va sug‘oriladigan dehqonchilik maydonlarining kengayishi aborigen turlar sonining qisqarishiga, adventiv turlar ulushining ortishiga va ekotizimlarning degradatsiyasiga olib keldi. O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugining ayrim hududlariga oid ma’lumotlar N.O. Sulaymonov (2015), K.Sh. Tojibaev va boshqalar (2021)larning ishlarida keltirilgan bo‘lsa-da, hudud florasining to‘liq konspekti shu vaqtgacha mavjud emas edi. Shu munosabat bilan O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining zamonaviy inventarizatsiyasi, uning adventivlashuv darajasini baholash, shuningdek, endemik va kamyob turlar tarkibini o‘rganish mintaqaviy bioxilma-xillikni saqlash, monitoring qilish va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika

institutining “Toshkent viloyati florasining kadastri” (2021–2023) va “Sirdaryo viloyati florasining kadastri” (2024) davlat dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining turlar tarkibini aniqlash, uning kompleks tahlilini o‘tkazish hamda mazkur hududning Turon provinsiyasi tarkibidagi mustaqil botanik-geografik maqomini ilmiy asoslash tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifalari:

O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasi yuksak o‘simliklarining taksonomik tarkibini aniqlash va flora konspektini tuzish.

O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasini kompleks (taksonomik, geografik va biomorfologik) hamda qiyosiy tahlil qilish asosida uni Turon provinsiyasi tarkibida mustaqil botanik-geografik rayonlashtirish birligi sifatida asoslash.

Floraning aborigen va adventiv fraksiyalarini qiyosiy tahlil qilish hamda floradagi antropogen transformatsiya darajasini baholash.

Floraning kamyob va endem turlarini aniqlash hamda ularni muhofaza qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot hududi doirasidagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar florasini tahlil qilish va ularning floristik xilma-xillikni saqlashdagi ahamiyatini baholash.

Tadqiqotning obyekti: O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi yuksak o‘simlik turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi yuksak o‘simliklar florasining konspekti, taksonomiyasi, geografiyasi, floraning qiyosiy va hayotiy shakllari bo‘yicha tahlillari hamda muhofaza qilishni ilmiy asoslari hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari. Dissertatsiyada marshrutli, yarim statsionar, taksonomik, fitogeografik, biomorfologik, qiyosiy, statistik va GAT xaritalashning zamonaviy usullaridan foydalanildan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijasida O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasi 88 oila, 481 turkum va 1197 turni o‘z ichiga olgan zamonaviy konspekti tuzilgan. O‘rta Sirdaryo okrugi florasining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, uning o‘tish (tranzitsion) xarakteri belgilangan. Bu holat tadqiqot hududining geografik jihatdan G‘arbiy Tyon-Shon va Pomir-Olay tog‘ tizmalari, Qizilqum cho‘li va Farg‘ona vodiysi o‘rtasida joylashganligi bilan bog‘liq.

O‘rta Sirdaryo okrugini Turon provinsiyasi tarkibida botanik-geografik rayonlashtirishning mustaqil birligi sifatida ajratish ilmiy asoslab berilgan. O‘zbekiston florasi uchun 1 ta yangi tur aniqlanib, shuningdek, avval ushbu hududda qayd etilmagan 19 tur (8 ta aborigen va 11 ta adventiv) aniqlangan.

O‘rta Sirdaryo okrugi florasining adventiv fraksiyasi o‘rganilib, u 44 oilaga mansub, 105 turkum va 208 turdan iborat ekani belgilangan. Adventiv turlarning naturallashuv darajasi aniqlanib, aborigen va adventiv fraksiyalar o‘rtasida solishtirma tahlil o‘tkazilgan.

Hududdagi to‘rtta muhofaza etiladigan tabiiy hudud Dalvarzin va Qalg‘ansir

davlat o‘rmon-ov xo‘jaliklari, Sayxun va Arnasoy davlat buyurtma qo‘riqxonalari florasining ro‘yxatlari tuzilib, o‘zaro solishtirma tahlil amalga oshirilgan. Ularning hududlarida jami 407 tur (O‘rta Sirdaryo okrugi florasining 34 %) muhofaza qilinishi aniqlangan. O‘zbekiston florasi bo‘yicha floristik tadqiqotlarda ilk bor “tur–maydon” nisbati matematik modeli (Arrhenius, 1921), hududlararo floristik o‘xshashlikni baholash uchun hat{α} indeksi, shuningdek, Adventizatsiya indeksi (AI)ni hisoblash usuli qo‘llanilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining 1197 turdan iborat konspekti, shuningdek Dalvarzin va Qalg‘ansir o‘rmon-ov xo‘jaliklari, Sayxun va Arnasoy davlat buyurtma qo‘riqxonalarining floristik ro‘yxatlari Toshkent va Sirdaryo viloyatlari florasi kadastrlarini tayyorlashda asosiy manba sifatida foydalanilgan. Olingan natijalar bioxilma-xillik monitoringini tashkil etish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish, adventiv turlarni nazorat qilish hamda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida sanoat korxonalari va infratuzilma loyihalari uchun ekologik ekspertiza o‘tkazishda amaliy asos yaratgan.

Tadqiqot davomida 2000 dan ortiq gerbariy namunasi yig‘ilib, U‘zbekiston Milliy gerbariyi (TASH) fondiga ilmiy kollektsiya sifatida topshirilgan. Ulardan 500 dan ortiq namunalar skaynerlash orqali Xalqaro Bioxilma-xillik malumotlar bazasi GBIFga kiritilgan. Bu O‘zbekiston o‘simliklar dunyosi haqidagi ma’lumotlarning xalqaro ilmiy maydonda boyishi va ochiq foydalanish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra *Tulipa borszczowii* turi O‘zbekiston Qizil kitobining yangi nashriga kiritish uchun tavsiya etilgan. Shuningdek, Toshkent viloyatida ushbu turning izolyatsiyalangan populyatsiyasini saqlab qolish maqsadida Dalvarzin qumlarida muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif ishlab chiqilgan. Tadqiqot jarayonida to‘plangan ma’lumotlar oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik materiallar tayyorlashda foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi klassik va zamonaviy floristik metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi, yig‘ilgan gerbariy namunalarining O‘zbekiston Milliy gerbariyi (TASH) fondida saqlanishi, tadqiqotning asosiy ilmiy natijalarining yetakchi ilmiy jurnallarda chop etilishi va respublika hamda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinishi bilan ta’minlanadi. Tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari amaliy va fundamental davlat loyihalariga joriy etilgan bo‘lib, ularning amaliy qiymati vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlangan. Shuningdek, tadqiqot natijalari “O‘zbekiston florasi”ning yangi nashri va O‘zbekiston Qizil kitobini tayyorlash jarayonida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining kompleks tahlilini amalga oshirilgani, uning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangani, aborigen va adventiv fraksiyalar tarkibi belgilab, ularning solishtirma tahlili o‘tkazilgani bilan asoslanadi. Shuningdek, endemik va kamyob

o‘simliklarning tarqalishi o‘rganildi, okrug florasi uchun bir qator yangi turlar aniqlandi hamda uni Turon provinsiyasi tarkibida botanik-geografik rayonlashtirishning mustaqil birligi sifatida ajratish ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining konspekti va endemik hamda kamyob turlarning GIS xaritalari yaratilgan. Hududdagi to‘rtta muhofaza etiladigan tabiiy hudud florasining inventarizatsiyasi amalga oshirilib, adventiv turlarning tarqalishi bo‘yicha yangi ma’lumotlar olingan. Tadqiqot materiallari Toshkent va Sirdaryo viloyatlari florasining davlat kadastrini tuzishda qo‘llanilib, endemik va kamyob turlar bo‘yicha ma’lumotlar O‘zbekiston Qizil kitobining yangi nashrini tayyorlashda foydalanilgan. Shu tariqa, dissertatsiya natijalari uzoq muddatli ekologik monitoringni tashkil etish va tabiatni muhofaza qilish choralarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida to‘plangan 2000 dan ortiq gerbar namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariyi (TASH) fondini boyitdi, 500 ta namuna bo‘yicha ma’lumotlar GBIF xalqaro portaliga (www.gbif.org) integratsiya qilingan. Bu esa O‘zbekiston florasi haqidagi ma’lumotlarning xalqaro miqyosda ochiqligi va foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan. Dissertatsiya natijalari, shuningdek, O‘zbekiston florasining yangi nashri, oliy ta’lim muassasalari uchun darsliklar va o‘quv-metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasi tadqiq qilishda olingan natijalar asosida:

Hududda tarqalgan 100 dan ortiq turga mansub 500 dan ziyod gerbariy namunalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi Global bioxilma-xillik axborot tizimiga GBIF (www.gbif.org) joriy etilgan (GBIF ning 11.06.2025-yildagi ma’lumotnomasi). Natijada, O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi hududida tarqaladigan o‘simlik turlari haqidagi global ma’lumotlar bazasining boyitish imkonini bergan.

O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasiga mansub 300 turdan ortiq 2000 dan ziyod gerbariy namunasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 30.05. 2025-yildagi №4/1255-1337-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) Markaziy Osiyo florasiga oid noyob ilmiy kolleksiyasi fondini yangi namunalar bilan boyitish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda ta ilmiy maqola, jumladan, 12 ta respublika va 1 ta xorijiy (Scopus va WOS) bazalarida indekslangan) jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uning ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatib berilgan, ilmiy yangiliklar va amaliy natijalar bayon qilingan. Olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Olib borilgan botanik tadqiqotlar tahlili, tadqiqot obyekti va usullari”** bobida hududning fizik-geografik tavsifi, botanika tadqiqotlari tarixiga oid manbalar sharhi, shuningdek tadqiqotning obyekti va metodlari bayon etilgan.

Bobning birinchi bo‘limida O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugining botanik-geografik o‘rni, landshaft xususiyatlari, tabiiy sharoitlari hamda floraga ta’sir ko‘rsatuvchi antropogen omillar tahlil qilingan. Tadqiqot hududi Sirdaryo daryosining o‘rta oqimidagi Toshkent-Mirzacho‘l depressiyasida joylashgan bo‘lib, shimolda G‘arbiy Tyon-Shon, janubda Pomir-Olay, g‘arbda Qizilqum cho‘li, sharqda Farg‘ona vodiysi bilan chegaralangan (Tojibaev va boshq., 2016). Hudud qadimgi Toshkent vohasi hamda XX asrda o‘zlashtirilgan Mirzacho‘l cho‘lining antropogen o‘zgargan landshaftlarini o‘z ichiga oladi.

Bobning ikkinchi bo‘limida hudud florasini o‘rganish bosqichlari tahlil qilingan: XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi dastlabki ekspeditsiyalar; XX asrning birinchi yarmidagi tadqiqotlar; xo‘jalik faoliyatining jadal rivojlangan davriga oid floristik ishlar hamda yangi usullar va GIS texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar. M.G. Popov (1923), A.M. Lapin (1938, 1941), V.P. Bochantseva (1961) kabi klassik olimlar va N.O. Sulaymonov (2015), K.Sh. Tojibaev va boshq. (2021)ning zamonaviy tadqiqotlari mintaqa florasining shakllanishiga qo‘shgan hissasi baholangan.

Bobning uchinchi bo‘limida tadqiqotning obyekti va qo‘llanilgan metodlar yoritilgan. Floristik xilma-xillikni baholashda Arreniusning “tur-maydon” modeli (1921) qo‘llanilgan. Floraning antropogen o‘zgarish darajasi adventizatsiya indeksi (AI) yordamida aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkichni hisoblashda Shmalgauzen (1946), Grote (1950), Korneck (1974), Pyšek va Richardson (2000), Weber (2003), Essl va boshqalar (2011) tavsiyalari asos qilib olingan.

Dissertatsiyaning **“O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining kompleks tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining taksonomik, geografik, biomorfologik va taqqoslama tahlillari, shuningdek kamyob va endemik turlar hamda yangi floristik topilmalar bo‘yicha natijalar yoritilgan. Floristik boylik darajasi, florani tashkil qiluvchi taksonomik va biomorfologik tuzilma, areal tipologiyasi hamda sinantropizatsiya jarayoni chuqur tahlil qilingan.

Bobning birinchi qismida O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi (O‘SBGO) florasining konspekt tuzilmasi keltirilgan hamda taksonomik tarkib batafsil tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida O‘SBGO florasi tarkibida 481 ta turkum va 88 ta oila

tarkibiga mansub 1197 ta aborigen va adventiv tur aniqlangan. Ushbu ko‘rsatkich O‘rta Osiyoning ko‘plab cho‘l va yarim cho‘l hududlariga nisbatan yuqoridir, jumladan: Ustyurt platosi 724 tur (Sarybaev, 1994), Qoraqum 757 tur (Geldikhanov, 1995), Janubi-g‘arbiy Qizilqum 795 tur (Esanov, 2023), butun Qizilqum cho‘li taxminan 1043 tur (Khasanov va boshq., 2011), Surxon-Sherobod vodiysi 1053 tur (Juramurodov va boshq., 2025). Bu ko‘rsatkichlar O‘SBGO florasining Turon provinsiyasi doirasidagi yuqori xilma-xillikka ega floristik hudud ekanini tasdiqlaydi. O‘SBGO florasida yopiq urug‘lilar (Angiospermae) mutlaq ustunlikka ega 1190 tur (99,42%); ochiq urug‘lilar (Gymnospermae) faqat 1 tur (0,1%) bilan, yuqori sporali o‘simliklar (Polypodiophyta) esa 6 tur (0,5%) bilan ifodalangan bo‘lib, shundan 2 turi qirqquloqsimonlar (Equisetopsida) va 4 turi haqiqiy qirqquloqlilar (Polypodiopsida) sinfiga mansub. Katta taksonomik birliklar o‘rtasidagi bu nisbat Turon provinsiyasi floralariga xos bo‘lib, tadqiqot hududining arid sharoitlarini aks ettiradi. MONOCOTS va EUDICOTS sinflari o‘rtasidagi nisbat 1:3,5 ni tashkil etadi, bu esa O‘rta Osiyo floralariga xos qonuniyatlarga mos keladi (1-jadval). O‘rtacha har bir oilaga 5,5 ta turkum va 13,6 ta tur (1:5,5:13,6) to‘g‘ri keladi, bitta turkumga esa o‘rtacha 2,5 ta tur to‘g‘ri kelishi aniqlangan.


1-jadval

Yirik sistematik taksonlarda turni % ulushi


Sinflar	Tur		Turkum		Oila	
	abs	%	abs	%	abs	%
EQUISETOPSIDA	2	0,2	1	0.2	1	1,1
POLYPODIOPSIDA	4	0,3	4	0.8	3	3,4
GNETOPSIDA	1	0,1	1	0.2	1	1,1
ANGIOSPERMAE	1190	99,4	474	98.8	82	94,4
MONOCOTS	265	22,1	97	20.3	18	20,8
EUDICOTS	925	77,4	378	78.5	65	73,6
Jami:	1197	100	481	100	88	100

Hudud florasida polimorf bo‘lgan 5 ta oila Asteraceae, Poaceae, Amaranthaceae, Fabaceae va Brassicaceae ustunlik qiladi. Ushbu oilalar jami 550 ta turni (floraning 45,95 %) o‘z ichiga oladi. Flora tarkibidagi yetakchi 10 ta oila esa birgalikda 757 ta tur yoki (63,24 %)ni tashkil etadi (1-rasm). Qolgan 77 ta oila floraning 36,76 % ulushiga ega. Ushbu nomutanosiblik A.A. Grossgeym (1936), A.I. Tolmachev (1974) va R.V. Kamelin (1973, 2018) tomonidan ilgari surilgan arid hududlar floralarining bir tomonlama rivojlanishi ya’ni bir nechta yirik oilalarning yuqori darajadagi turlarga boyligi hisobiga flora shakllanishi haqidagi g‘oyalarni yaqqol tasdiqlaydi. Taksonomik spektrning umumiy tuzilishi O‘rta Osiyo floralariga xos bo‘lgan tipik xususiyatlarni aniq aks ettiradi. Asteraceae (162 tur, 13,53 %) va Poaceae (121 tur, 10,11 %) oilalarining yetakchi o‘rni Shimoliy yarimsharning mo‘tadil mintaqa floralariga xos bo‘lsa, Amaranthaceae va Brassicaceae oilalarining spektrning yuqori qismida joylashuvi Turon cho‘l floralariga xos belgidir (Xoxryakov, 2000). Bu holat, ayniqsa, Amaranthaceae oilasining yuqori ulushi (102

tur, 8,52 %) va floraning 3-o‘rnini egallashi, uning Fabaceae (85 tur, 7,1 %) oilasidan ancha ustun ekanligi bilan yanada yaqqol ko‘rinadi. Shuningdek, Amaranthaceae va Brassicaceae oilalarining yuqori ulushi florada sinantropizatsiya jarayonlarining kuchayganligidan darak beradi. O‘rganilayotgan floraning juda qiziqarli xususiyatlaridan biri bu Cyperaceae oilasining yuqori ulushi (52 tur, 4,34 %) bo‘lib, taksonomik spektrda 6-o‘rinni egallaydi. Oilaning bunday turlarga boyligi O‘rta Sirdaryo okrugi hududidagi suv-botqoq ekotizimlarining keng tarqalganligi va xilma-xilligiga bog‘liq. Shu bilan birga, quyidagi oilalar Lamiaceae (29 tur), Ranunculaceae (27 tur), Liliaceae (19 tur), Rosaceae (15 tur) va Amaryllidaceae (11 tur) yetakchi o‘ntalikka kirmagan. Bu esa floraning cho‘l-turan xarakteriga mos ravishda shakllanganini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuni ta’kidlash joizki, oilalarning turkum va tur boyligi ularning evolyutsion tarixiy rivojlanishi, ekologik moslashuvchanligi hamda biogeografik aloqalariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi (2-rasm).



1-rasm. O‘SBGO florasida yetakchi polimorf oilalarning % ko‘rsatkichi




2-rasm. O‘SBGO florasi yetakchi oilalardagi turkumlar soni

O‘rta Sirdaryo okrugi florasining yetakchi turkumlar spektri na Turon, na Tog‘li O‘rta Osiyo floralariga xos bo‘lgan tipik ko‘rinishga ega emas. Ro‘yxatning boshida *Astragalus* (28 tur, 2,34 %) va *Artemisia* turkum turlari (19 tur, 1,59 %) turadi. Uchinchi o‘rinni *Carex*, *Euphorbia*, *Ranunculus*, *Taraxacum* va *Veronica* turlari bo‘lib, har biri 14 tadan tur (1,17 %) bilan bo‘lishadi. Keyingi o‘rinda *Bromus* va *Cuscuta* har biri 13 tadan tur (1,09 %) bilan, undan so‘ng *Climacoptera, Cousinia* va *Gagea* har biri 12 tadan tur (1,0 %) bilan beshinchi pog‘onani egallaydi. Oltinchi o‘rinda *Allium* va *Cyperus* (har biri 11 tur, 0,92 %), ketma-ketlikda esa *Atriplex, Juncus, Medicago, Polygonum* va *Rumex* (har biri 10 tadan tur, 0,84 %) joylashgan.

Bunday yetakchi turkumlar tarkibi o‘rganilayotgan florani shakllantirgan omillarning murakkabligini aks ettiradi: Turon va Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyalari chegarasidagi o‘tish zonasi, landshaftlarning (ayniqsa, suv–botqoq ekotizimlarining) xilma-xilligi hamda florada sinantropizatsiya darajasining yuqoriligi asosiy sabab hisoblanadi. Keltirilgan faktlar O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining tuzilmaviy o‘ziga xosligini ko‘rsatadi hamda uning taksonomik tarkibi Turon va Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyalari kontakt zonasiga xos ekologik va biogeografik qonuniyatlarga muvofiq shakllanganini tasdiqlaydi.

Bobning ikkinchi qismida O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining areal tiplari tipologiyasi va geografik elementlari tarkibi tahlil qilingan. Areal tiplari va sinflarini ajratishda R.V. Kamelin (1973, 2002, 2017, 2021, 2022) hamda A.L. Taxtajyan (1986, 1987) ishlari asos qilib olingan. Hudud florasida 52 ta areal tipi va 7 ta areal sinfi aniqlangan (3-rasm).



3-rasm. Hudud florasining areal sinflari

Aniqlanishicha, flora tarkibidagi turlarning yarmidan ko‘pi (654 tur, 54,64 %) pluriregional, golarktik va palearktik areal sinflariga mansub bo‘lgan keng arealli turlardan iborat. Keng arealli turlarning bunday yuqori ulushi hudud ekotizimlarining antropogen transformatsiyasi kuchayganini aks ettiradi. Hududning tarixan shakllangan tabiiy floristik yadrosini Qadimgi O‘rta Yer dengizi, O‘rta Osiyo, Turon va Tog‘li O‘rta Osiyo areal sinflari tashkil etadi. Ushbu sinflar jami 539 tur (45,02 %)ni o‘z ichiga oladi va ular O‘rta Sirdaryo okrugining florasi Takhtadjan (1986) bo‘yicha Qadimgi O‘rta Yer dengizi mintaqasining Iran-Turan hududiga mansub ekanini ko‘rsatadi. Umuman olganda, o‘rganilayotgan florada yetakchi o‘rinni galearktik areal sinfi (474 tur, 39,59 %) hamda qadimgi o‘rta yer dengizi sinfi (334 tur, 27,90 %) egallaydi. Turon provinsiyasi chegarasidan tashqariga chiqmaydigan turlar ulushi esa nisbatan kam 84 tur (7,02 %).Floraning muhim xususiyatlaridan biri tog‘li O‘rta Osiyo elementi hisoblangan turlarning mavjudligidir (42 tur, 3,51 %). Ushbu holat O‘rta Sirdaryo okrugi florasining o‘tish (tranzitsion) xarakterga egaligini, ya’ni hududning G‘arbiy Tyon-Shon va Pomir-Olay tog‘ tizmalari bilan Qizilqum cho‘li va Farg‘ona vodiysi o‘rtasidagi chegara zonada joylashganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, florada endemik turlar ulushi juda past atigi 2 tur (0,17 %), subendemiklar esa 9 tur (0,75 %). R.V. Kamelin (2021) mazkur hududni Turon provinsiyasining Farg‘ona okrugi tarkibida qayd etgan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysining tor arealli endemik turlari bu hududga kirib kelmaydi, bu esa O‘rta Sirdaryo okrugini alohida botanik-geografik rayon sifatida ajratish zarurligini (Tojibaev va boshq., 2016) yana bir bor tasdiqlaydi.

Bobning uchinchi bo‘limi floraning taqqoslama tahliliga bag‘ishlangan. O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi tarkibiga kiruvchi Mirzacho‘l va Chinoz botanik-geografik rayonlari florasi o‘rtasida taqqoslash amalga oshirildi. Chinoz rayonining florasida, Tashkent-Mirzacho‘l tekisligining o‘ng sohil qismini egallagan hudud sifatida, 474 ta turkum va 87 ta oilaga mansub 1054 ta tur aniqlangan. Sirdaryo daryosining chap sohili bo‘ylab joylashgan Mirzacho‘l rayonida esa 386 ta turkum va 78 ta oilaga mansub 877 ta tur qayd etilgan. Turlar tarkibidagi farqlar geografik va iqlimiy omillar bilan izohlanadi. Chinoz florasining yuqori tur boyligi hududning G‘arbiy Tyon-Shon ta’sir doirasida joylashganligi (iqlimning kamroq qurg‘oqchil bo‘lishi, ikki yirik daryoning mavjudligi) hamda tog‘ oldi tekisligiga tog‘ florasining kirib kelishi bilan bog‘liq. Mirzacho‘l rayoni esa tarixan suvsiz cho‘l hudud bo‘lib, ancha arid iqlimga ega va florasi tarkibi jihatidan nisbatan kam floraga ega.

Bu holat yetakchi oilalar va turkumlar spektrlari, shuningdek xorologik guruhlar tarkibini taqqoslash orqali ham tasdiqlanadi. Chinoz florasida yetakchi

oilalar Asteraceae (146 tur, 13,9 %), Poaceae (111 tur, 10,5 %) va Fabaceae (80 tur, 7,6 %) bo‘lib, bu tarkib Tog‘li O‘rta Osiyo floralariga xosdir. Mirzacho‘l florasida esa taksonomik spektrning bosh qismi Turon cho‘l floralariga xos bo‘lib, birinchi uchlik Asteraceae (120 tur, 13,7 %), Poaceae (103 tur, 11,7 %) va Amaranthaceae (96 tur, 10,9 %) oilalaridan iborat (4-rasm). Chinoz florasida turan turlari ulushi (39 tur, 3,7 %) deyarli tog‘li O‘rta Osiyo elementlari ulushiga (34 tur, 3,2 %) teng bo‘lsa, Mirzacho‘l florasida turan turlari miqdori tog‘li O‘rta Osiyo elementlariga nisbatan qariyb uch barobar ko‘pdir (74 va 24 tur, mos ravishda 8,47 % va 2,75 %). Shu bilan birga, ikki rayon florasining tur tarkibi o‘rtasidagi o‘xshashlik darajasi juda yuqori: 741 ta umumiy tur qayd etilgan, Jakkard o‘xshashlik koeffitsienti (Kj) = 0,62ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Chinoz va Mirzacho‘l rayonlarining bitta botanik-geografik okrugga mansubligini tasdiqlaydi.



4-rasm. Chinoz va Mirzacho‘l rayonlari polimorf oilalar spektri

O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi fitogeografik rayonlashning mustaqil birligi sifatidagi mavqeyini asoslash maqsadida qo‘shni hududlar florasi bilan taqqoslama tahlil o‘tkazildi. Janubi-Sharqiy Qizilqum qoldiq tog‘lari florasi (JSHQQT, Batoshov, 2016), Molg‘uzar tizmasi florasi (Azimova, 2017) va Farg‘ona vodiysining shimoliy adirlari florasi (FVSHA, Xoshimov, 2023), shuningdek Turon provinsiyasining boshqa cho‘l regionlari florasi Buxoro vohasi (BV, Esanov, 2017) va Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi (JG’QF, Esanov, 2023) bilan qiyoslandi. Aniqlandiki, O‘SBGO florasi eng katta o‘xshashlikni Janubi-Sharqiy Qizilqum qoldiq tog‘lari florasi bilan namoyon qiladi 585 ta umumiy tur, Kj = 0,42, shuningdek Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi bilan 541 ta umumiy tur, Kj = 0,37. Minimal o‘xshashlik esa Buxoro vohasi florasi bilan qayd etildi 411 ta umumiy tur, Kj = 0,31 (2-jadval). Ushbu ma’lumotlar o‘rganilayotgan florani o‘tish (tranzitsion) xarakterga ega ekanini, yaqin hududlar floralariga yaqinligini, shu bilan birga O‘SBGOning botanik-geografik rayonlashda mustaqil birlik sifatida ajratilishini taqozo etuvchi o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi.


Geografik elementlar tarkibini taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, O‘SBGO florasida keng arealli turlar guruhi (54,6 %) ustunlik qiladi, holbuki qolgan 4 hudud floralarida avtoxton O‘rta Osiyo va qadimgi o‘rtayer turlari ustun (Buxoro vohasida 65,1 %dan Janubi-Sharqiy Qizilqum qoldiq tog‘larida 72,7 %gacha) (5-rasm). Bu holat tadqiqot hududi ekotizimlarining antropogen transformatsiyasi yuqori ekanini va florada sinantropizatsiya jarayonlari kuchayganini yaqqol tasdiqlaydi. Taqqoslangan floralar avtoxton turlar guruhida asosan qadimgi O‘rta Yer dengizi tipidagi arealga ega bo‘lgan turlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysining shimoliy adirlari florasining xususiyatlaridan biri endemizmning yuqori darajasi (41 tur, 5,01 %). Endemik turlar miqdori Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasida ham sezilarli (28 tur, 3,5 %).O‘SBGO, Janubi-Sharqiy Qizilqum qoldiq tog‘lari va Malg‘uzar tizmasi

floralarida faqat 2 tadan tor arealli endemik tur ma’lum bo‘lib, bu ularning o‘tish zonasi florasi sifatidagi tabiiy xususiyati bilan bog‘liq.

2-jadval


O‘rta Sirdaryo okrugi florasi va boshqa hududlar florasining taqqoslovchi ko‘rsatkichlari

Hudud	Oilalar soni	Turkumlar soni	Turlar soni	O‘SBGO florasi bilan umumiy turlar soni	K_j
O‘SBGO (Qosimov, 2025)	88	481	1197		
FVSHA (Xoshimov, 2023)	62	355	804	476	0,31
Molguzar (Азимова, 2017)	84	465	1255	618	0,34
JSHQQT (Batashov, 2016)	69	355	781	585	0,42
BV (Esanov, 2017)	59	294	528	411	0,31
JG‘Q (Esanov, 2023)	68	346	795	541	0,37



5-rasm. Taqqoslangan floralarning xorologik spektrlari

Shuningdek, mazkur floralar biomorfologik spektrlari ham taqqoslandi (6-rasm.) O‘SBGO florasida bir yillik o‘simliklar ustunlik qiladi (595 tur, 49,7 %); ko‘p yillik o‘tlar ikkinchi o‘rinda turadi (448 tur, 37,4 %). Ikki yilliklar 46 tur (3,8 %) bilan, yarim butalar 40 tur (3,3 %), butalar 39 tur (3,3 %), daraxtlar esa 29 tur (2,4 %) bilan qayd etilgan.



6-rasm. Hududlar florasining hayotiy shakllar bo‘yicha taqqoslanishi

Hayotiy shakllarning bunday nisbati biryillik o‘simliklarning sezilarli ustunligi va yarim buta, buta hamda daraxtlarning past ulushi Buxoro vohasi, Janubi-G‘arbiy Qizilqum, Janubi-Sharqiy Qizilqum qoldiq tog‘lari va Farg‘ona vodiysi shimoliy adirlari floralarining biomorfologik spektrlari bilan o‘xshashdir. Bu ko‘rinish umuman


olganda O‘rta Osiyo cho‘l va yarim cho‘l floralariga xos bo‘lgan umumiy qonuniyatni aks ettiradi.

Bobning to‘rtinchi bo‘limida O‘rta Sirdaryo botanik-geografik okrugi florasining kamyob va endemik turlari bo‘yicha ma’lumotlar, shuningdek ularning tadqiqot hududidagi tarqalishini aks ettiruvchi GIS xaritalari keltirilgan. Endemik fraksiya O‘SBGO uchun tor arealli ikki endemik tur (*Climacoptera lachnophylla* va *C. malyginii*) hamda 9 ta subendemik tur (*Bryonia melanocarpa*, *Climacoptera amblyostegia, C. intricata, C. merkulowiczii, C. minkvitziae, C. olgae, Cousinia spiridonovii, Taraxacum eriobasis va T. strobilocephalum*) bilan ifodalangan. Tadqiqot hududida O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan 9 ta kamyob tur aniqlangan bo‘lib, ulardan biri 0-toifa ehtimol yo‘qolib ketgan tur (*Nonea calceolaris*), 2-toifaga mansub 3 tur (*Climacoptera amblyostegia, C. malyginii, C. merkulowiczii*) va 3-toifaga mansub 5 tur (*Colchicum kesselringii, Tulipa greigii, T. korolkowii, T. micheliana va Lagochilus inebrians*) qayd etilgan. O‘zbekiston bo‘yicha kamyob tur bo‘lgan Tulipa borszczowii, O‘rta Osiyoning shimoliy cho‘llariga xos endemik tur, yangi milliy Qizil kitob nashriga 2-kategoriya (VU) maqomida, kriteriyalari B2b(ii,iii,iv,v) + C2a(i) asosida kiritish uchun tavsiya etildi. Shuningdek, O‘zbekistonda ma’lum 3 ta populyatsiyadan biri bo‘lgan, Toshkent viloyatidagi ushbu turning izolyatsiyalangan populyatsiyasini saqlab qolish maqsadida Dalvarzin qumlarida muhofaza etiladigan tabiiy hudud tashkil etish taklif etildi.


